FARG'ONA VILOYATI SO'X TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 5 - yanvar 4-11-159-Q/22 So‘x tumani hokimligi

Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafnetish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman xududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlariga:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqatad birlarni tashkiletish;

Sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun huj jatla-riga muvofiq amalga oshirsin.

3.Tuman obodonlashtirish bo‘limi(fuqarolik xizmati ko‘rsatish boshqar-alari) hamda qabristonlarning ma’muriyati:

Xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar buyicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini:

Qabristonlarda byustlar,haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bulgan inshootlarni o‘rnatish, ob’ektlarni saqlaash va uulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash:

4. Ushbu qaror “Sadoi So‘x” ro‘znomasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **С.Сайидмусаев**

Сўх туман ҳокимининг
2022 йил 5 январдаги
4-11-159-Q/22-сон қарорига
1-илова

So‘x tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish

bo‘yicha tariflar miqdori

so'm

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tuman (shahar)lar	Tuman (shahar)lar*
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	122000	122000
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga		
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul	bepul

*Viloyatdagi tuman (shahar)larda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.